



# The role and importance of contractual discipline in the execution of business agreements in entrepreneurial activities

Mirzokhid LUTFULLAEV<sup>1</sup>

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

### Keywords:

economic contract,  
parties to economic  
contract,  
rights and obligations,  
principles,  
entrepreneurial activity,  
contractual discipline.

## ABSTRACT

This article provides information on the legal foundations of economic contracts, the procedures for their formation, and the role and importance of contractual principles in concluding economic contracts. Additionally, it presents scientific-theoretical and practical analyses of contractual relations pertaining to contractual discipline.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp117-120>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# Tadbirkorlik faoliyatida xo'jalik shartnomalarining bajarilishida shartnoma intizomining o'рни va ahamiyati

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

xo'jalik shartnomasi,  
xo'jalik shartnomasi  
taflari,  
huquq va majburiyatlar,  
prinsiplar,  
tadbirkorlik faoliyati,  
shartnoma intizomi.

Ushbu maqolada xo'jalik shartnomalarining huquqiy asoslari, ularni tuzish tartib taomillari va xo'jalik shartnomalarini tuzishda shartnoma prinsiplarining o'рни va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan, shuningdek, shartnoma intizomiga oid shartnomaviy munosabatlar yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar olib borilgan.

<sup>1</sup> Independent Researcher. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

# Роль и значение договорной дисциплины при заключении хозяйственных договоров в предпринимательской деятельности

## АННОТАЦИЯ

### *Ключевые слова:*

хозяйственный договор, стороны хозяйственного договора, права и обязанности, принципы, предпринимательская деятельность, договорная дисциплина.

В данной статье представлена информация о правовых основах хозяйственных договоров, порядке и процедурах их заключения, а также о роли и значении договорных принципов при заключении хозяйственных договоров. Кроме того, проведен научно-теоретический и практический анализ договорных отношений, связанных с договорной дисциплиной.

Yangi O'zbekistonimizdagi bugungi kun barqarorligi, mamlakatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ichki iqtisodiyotning samaradorligi va o'sish sur'atlari respublikamizning har tomonlama rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy manfaatlar, harakatchan tashabbuslar va tavakkalchilik iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu harakatlantiruvchi kuchlarning funksional qo'llanilishi tadbirkorlik faoliyatidir, chunki aynan shu ijtimoiy faoliyat turi shaxsiy va ijtimoiy farovonlikning oshishini ta'minlaydi. Respublikamiz iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarining muntazam ravishda oshib borishi uchun iqtisodiyotning huquqiy tartibga solinganligi muhim ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, bugungi kunda xo'jalik shartnomasi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy elementi hisoblanadi. Shartnoma xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bir-biriga nisbatan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlaydi, majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda ushbu munosabatlar ishtirokchilarining subyektiv huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish usullarini nazarda tutadi. Bu iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro huquqlari, majburiyatlarini to'liq aniqlashga imkon beradi. Ya'ni shartnomada ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat o'zini o'zi tartibga soladi, unda ishtirok etuvchi shaxslarga manfaatlarini va maqsadlarini erkin kelishib olish hamda natijaga erishish uchun qanday harakatlar qilinishini aniqlab olishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda shartnoma taraflar o'rtasidagi kelishuvga umummajburiy yuridik kuchga ega bo'lishni taqozo etadi. Shuning uchun shartnoma nafaqat taraflarning erkini kelishib olish, balki o'z xohishi bilan kelishuvga erishish, taraflar zimmasiga muayyan majburiyatni olishni anglatadi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyatida shartnoma intizomini mustahkamlash, tadbirkorlar huquqlarini ta'minlash va majburiyatni bajarmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari samaradorligini oshirish dolzarb masala bo'lib, majburiyat bajarilishini ta'minlash vositasi va majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlik choralari qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish yo'lidagi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik

yurituvchi subyektlar o'rtasida vujudga kelayotgan mazmunan yangi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda hamda shartnoma intizomini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, shartnomalar tuzish tajribasiga yetarlicha ega bo'lmagan kichik va o'rta biznes subyektlari, xususiyl tadbirkorlarning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash, turli xil ta'minotchi, tayyorlovchi monopol korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomaviyl munosabatlarda ularning huquql hamda manfaatlarini himoya qilishda ushbu qonunning tutgan o'rni beqiyosdir.

Ushbu qonunning 1-moddasida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquql va majburiyatlarini, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgilashi keltirilgan.

Qonunning 4-moddasida esa tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviyl munosabatlarning asosiy prinsiplari keltirilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi;
- tarablarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya etish;
- tarablarning o'zaro mulkiyl javobgarligi.

Bunda ko'rinib turibdiki, ushbu qonun tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni amalga oshirishning butun huquqiy mexanizmini qamrab olgan. Masalan, shartnoma intizomiga to'xtaladigan bo'lsak, bu iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biridir. Amaliyotning ko'p asrlik tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy munosabatlar, qaysi shaklda va qaysi davlatda rivojlanishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, odamlar o'rtasidagi tartibli munosabatlarning mavjudligidir, chunki bu odamlar va ularning birlashmalari, iqtisodiy faoliyatning asosiy subyektlari hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, tadbirkorlik faoliyatining yuqori samaradorligiga va zarur iqtisodiy o'sishga qat'iy intizom bilan erishish mumkin.

"Shartnoma intizomi"ga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: shartnoma intizomi shartnoma munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirish bo'yicha qonun talablariga barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qat'iy rioya etishidir. Ya'ni bunda taraflar tomonidan kelishilgan shartnoma majburiyatlarini to'g'ri bajarish talabidan tashqari, ular tomonidan shartnoma tuzish, bajarish, o'zgartirish tartibini belgilovchi normativ talablarga qat'iy rioya qilish talablarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga asosan, xo'jalik shartnomasi tarablarning kelishuviga muvofiq shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilinishi mumkin. Xo'jalik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, tarablarning uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki xo'jalik shartnomasining shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Tarablardan birining talabi bilan xo'jalik shartnomasi iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo'jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirishi yoki bekor qilinishi mumkin. Tarablardan birining xo'jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo'jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi xo'jalik

shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, xo'jalik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Shartnoma intizomi taraflarning o'zaro kelishuvi bilan boshlanadi, shuning uchun shartnoma intizomida shartlar faqat tuzilgan shartnoma doirasida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, shartnoma intizomini qo'llash uchun asos majburiyatni lozim darajada bajarmaslik, ya'ni majburiyatni buzish hisoblanadi. Endi bu o'rinda qonun ustuvorligiga e'tibor qaratish lozim, chunki qonun ustuvorligi, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish usuli bo'lib, uning yordamida qonuniylik va shartnoma intizomi rejimiga erishish ta'minlanadi. Shartnoma intizomi va qonuniyligi qonun ustuvorligini ta'minlash natijasi bo'lib, ularning amaldagi holati mamlakatda mavjud huquqiy tartibot samaradorligini muhim baholash ko'rsatkichidir.

Tadbirkorlik faoliyatida tuziladigan fuqarolik huquqiy shartnomalarning ijrosini ta'minlashda shartnoma intizomi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi, taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnoma intizomiga rioya etish xamda taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi taomillariga amal qilish bilan bevosita bog'liq. Qonuniylik singari, shartnoma intizomi ham ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur huquqiy jarayondir. Ushbu huquqiy jarayon funksional o'zaro ta'sirning umumiy sohasini tashkil qiladi, chunki qonuniylik bo'lmaganda shartnoma intizomini ta'minlash mumkin emas. Qonuniylikdan farqli o'laroq, shartnoma intizomi qonun talablariga rioya qilish bilan cheklanmaydi. U qonun osti hujjatlari, normativ-huquqiy va huquqni qo'llash hujjatlari talablariga, texnik va tashkiliy qoidalarga, axloq va ishbilarmonlik odob-axloq me'yorlariga, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining o'zlari tomonidan tuzilgan shartnomalarda ishlab chiqilgan o'zaro bog'liq xulq-atvorning huquqiy qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Albatta har qanday shartnoma o'zini o'zi tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, qonunning yuridik kuchiga tayanadi. Biroq qonun shartnomaviy munosabatlarni o'z holicha tartibga solmaydi. Qonun yo'li bilan davlatning jamiyat xo'jalik hayotiga aralashuvining muayyan belgilangan chegaralari mavjud bo'ladi. Shartnoma esa, ommaviy va xususiy manfaatlar, shu jumladan, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining manfaatlari iqtisodiy muvozanatini vujudga keltiradi hamda saqlaydi. Har qanday qonun davlat nomidan qabul qilinadi. Davlatning asosiy majburiyati, shaxsni uning huquq va erkinliklariga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdan, shu jumladan, xususiy shaxslar tomonidan tahdidlardan himoya qilishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining xo'jalik faoliyatini tartibga solish bo'yicha qonunlar.
3. Ибратов Б. Тadbirkorлик ҳуқуқи. –Тошкент.: Молия, 2001.
4. Z.O. Kuvandikov. Tadbirkorlik(biznes) huquqi. O'quv qo'llanma. SamDU 2023. 420 b.